XALQ DEPUTATLARI UYCHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-15-130-6-86-K/25 Uychi tumani

Uychi tumanida 2026-yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun bazaviy soliq stavkalarini belgilash xamda Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-437 modddalariga asosan xamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonuni, xalq deputatlari Uychi tumani Kengashining “2026-yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun bazaviy soliq stavkalarini belgilash to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Uychi tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-son Farmoniga ko‘ra, 2021-yil 1-yanvardan boshlab:

- tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida,

ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilash;

- tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlariga viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan belgilangan yer solig‘i stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kiritish huquqi berilganligi;

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2025-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi xalq deputatlari Namangan viloyati kengashining 29-dekabr 2025-yildagi VII-17-165-6-0-K/25 sonli qaroriga asosan:

- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i Uychi tumanida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha bazaviy soliq stavkasi 1 gektar uchun mutlaq o‘lchamda 62 160 000.0 so‘m;

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i (bundan dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar mustasno) Uychi tumanida bazaviy soliq stavkasi 1 kv.m. uchun mutlaq o‘lchamda 463,0 so‘m miqdorida belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Uychi tumanining hududlarini iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga qarab, soliq yukini kelgusi yilda keskin ortib ketishini oldini olish maqsadida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun xalq deputatlari Namangan viloyati kengashining 29-dekabr 2025-yildagi VII-17-165-6-0-K/25-sonli qarorida belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan:

yuridik shaxslar uchun 1-ilovaga muvofiq;

jismoniy shaxslar uchun 2-ilovaga muvofiq

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 3-ilovaga muvofiq

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan soliq stavkalariga 4-ilovaga muvofiq kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar belgilansin.

4. Tuman hokimligi, Tuman moliya bo‘limi xamda Uychi tuman soliq inspeksiyasi bilan birgalikda 1-2-ilovaga muvofiq, soliq stavkalarini soliq to‘lovchilarga belgilangan muddatlarda yetkazilishini, soliq solish tartiblari

hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Q.Qo‘chqorov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Xolmirzayev), tuman soliq inspeksiyasi (M.Qodirov) bilan birgalikda

2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (A.Abdullayev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Q.Qo‘chqorov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **PARPIYEV A’ZAMJON G‘AYBULLAYEVICH**

Xalq deputatlari Uychi tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-15-130-6-86-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

(so‘mda)

T/r	MFY lar nomi	Namangan kengashining yer solig‘i stavkasi 2026 yil uchun (1 ga uchun)	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026 yil uchun (1 ga uchun)
1	Quvurboshi MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
2	Yangi hayot MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
3	Qashqar MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
4	Qahramon MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
5	Ittifoq MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
6	Istiqlol MFY	62 160 000,0	0,70	49 728 000,0
7	Islomobod MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
8	Yangichek MFY	62 160 000,0	0,80	49 728 000,0
9	Jiydakapa MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
10	Yorkatay MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
11	Do‘stlik MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0

12	Dexqonobod MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
13	Dexqon MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
14	Keskanyor MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
15	Daxyakota MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
16	Guliston MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
17	Gulzor MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
18	Gulbog‘ MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
19	G‘ayrat MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
20	Bo‘ston MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
21	Boyag‘on MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
22	Bog‘ MFY	62 160 000,0	0,80	49 728 000,0
23	Bog‘ ko‘cha MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
24	Beruniy MFY	62 160 000,0	0,80	49 728 000,0
25	Balandariq MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
26	Axsi MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
27	Gumbaz MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
28	Qumtepa MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
29	Mashad MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
30	Yangi yer MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
31	Ezgulik MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
32	Shifokor MFY	62 160 000,0	0,80	49 728 000,0
33	Shaftoli MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
34	Qo‘rg‘oncha MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
35	Xurriyat MFY	62 160 000,0	0,80	49 728 000,0
36	Xo'jaobod MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
37	Xojiobod MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0

38	Xizirobod MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
39	Fayziobod MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
40	O‘nxayat MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
41	Toshloq MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
42	Churtuk MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
43	Soku MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
44	Tepasaroy MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
45	Muborak MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
46	Mustaqillik MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
47	Navoiy MFY	62 160 000,0	0,80	49 728 000,0
48	Mirzarovot MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
49	Ovchi buloq MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
50	Oqtosh MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
51	Olmurut MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
52	Pastguzar MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0
53	Obod MFY	62 160 000,0	0,70	43 512 000,0

Xalq deputatlari Uychi tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-15-130-6-86-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

(so‘mda)

T/r	MFY nomi	Namangan kengashining yer solig‘i stavkasi 2026 yil uchun (1 kv uchun)	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026 yil uchun (1 kv uchun)
1	Quvurboshi MFY	463,00	0,80	416,70
2	Yangi xayot MFY	463,00	0,70	324,10
3	Qashqar MFY	463,00	0,70	324,10
4	Qahramon MFY	463,00	0,70	324,10
5	Ittifoq MFY	463,00	0,72	333,36
6	Istiqlol MFY	463,00	0,80	370,40
7	Islomobod MFY	463,00	0,75	347,25
8	Yangichek MFY	463,00	0,85	393,55
9	Jiydakapa MFY	463,00	0,72	333,36
10	Yorkatay MFY	463,00	0,75	347,25
11	Do'stlik MFY	463,00	0,70	324,10
12	Dexqonobod MFY	463,00	0,70	324,10

13	Dexqon MFY	463,00	0,71	328,73
14	Keskanyor MFY	463,00	0,70	324,10
15	Daxyakota MFY	463,00	0,75	347,25
16	Guliston MFY	463,00	0,70	324,10
17	Gulzor MFY	463,00	0,75	347,25
18	Gulbog‘ MFY	463,00	0,75	347,25
19	G‘ayrat MFY	463,00	0,72	333,36
20	Bo'ston MFY	463,00	0,70	324,10
21	Bo‘yagon MFY	463,00	0,72	333,36
22	Bog‘ MFY	463,00	0,85	393,55
23	Bog‘ ko‘cha MFY	463,00	0,75	347,25
24	Beruniy MFY	463,00	0,85	393,55
25	Balandariq MFY	463,00	0,72	333,36
26	Axsi MFY	463,00	0,72	333,36
27	Gumbaz MFY	463,00	0,75	347,25
28	Qumtepa MFY	463,00	0,75	347,25
29	Mashad MFY	463,00	0,80	370,40
30	Yangi yer MFY	463,00	0,70	324,10
31	Ezgulik MFY	463,00	0,70	324,10
32	Shifokor MFY	463,00	0,85	393,55
33	Shaftoli MFY	463,00	0,72	333,36
34	Qo‘rg‘oncha MFY	463,00	0,75	347,25
35	Xurriyat MFY	463,00	0,85	393,55
36	Xo'jaobod MFY	463,00	0,75	347,25
37	Xojiobod MFY	463,00	0,70	324,10
38	Xizirobod MFY	463,00	0,70	324,10

39	Fayziobod MFY	463,00	0,75	347,25
40	O‘nxayat MFY	463,00	0,80	370,40
41	Toshloq MFY	463,00	0,75	347,25
42	Churtuk MFY	463,00	0,75	347,25
43	Soku MFY	463,00	0,75	347,25
44	Tepasaroy MFY	463,00	0,75	347,25
45	Muborak MFY	463,00	0,75	347,25
46	Mustaqillik MFY	463,00	0,70	324,10
47	Navoiy MFY	463,00	0,85	393,55
48	Mirzarovot MFY	463,00	0,75	347,25
49	Ovchi buloq MFY	463,00	0,80	370,40
50	Oqtosh MFY	463,00	0,75	347,25
51	Olmurut MFY	463,00	0,72	333,36
52	Pastguzar MFY	463,00	0,75	347,25
53	Obod MFY	463,00	0,80	370,40

Xalq deputatlari Uychi tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-15-130-6-86-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar

(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respub likasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alko golli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Uychi tumani	1.1	1.1	1.1	1.1	1.1	1.1	1.1	1.1

Xalq deputatlari Uychi tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-15-130-6-86-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar

T/r	**Tuman va shaharlar nomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohak toshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, gra nodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktosh dan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Uychi tumani	1.2	1.2	1.2	1.2	1.2	1.3	1.3